

**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING  
IQTISODIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846482>

**Abdillayeva Dilnura Shodi qizi**

*Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha va  
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy savodxonlikning shaxs ma'naviyatidagi o'ziga xos o'rini va xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritilgan. Maqolada matematika darslarida o'quvchilarga makkablarda iqtisodiy bilim va madaniyatni shakllantish haqidagi bilimlar ochib berilgan. O'quvchilar iqtisodiy savodxonligini oshirish maqsadida jamiyatshunoslik va matematika fanlari integratsiyasiga misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar;** Iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy mas'uliyat, iqtisodiy madaniyat, tejamkorlik, mehnat unumдорлигi, mehnat intensivligi, biznes, iqtisodiy samaradorlik, maktabda iqtisodiy ta'lif, ta'lif oluvchilar qiziqishlari, iqtisodiy savodxonlikning predmetlararo aloqalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 7-may kuni PQ-4708 sonli "Matematika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" Qarorida "umumiyo'rta va maxsus ta'limuassasalarida matematika fanlari o'qitish sifatini oshirish matematika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish ,ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilangan.

Bundan ko'rindaniki, matematika o'qitish jarayonida ta'lif oluvchilarga ilmiy-tadqiqot namunalarini amaliyotga qo'llashga doir bilim va ko'nikmalarini berish ,shu bilan birga ularning iqtisodiy savodxonligini shakllantirish juda muhim vazifalar sirasidan hisoblanadi.

Iqtisodiy savodxonlik – bu inson hayotini yaxshilashga ,farovon hayot kechirishiga yordam beradigan bilim,ko'nikma,malakalar jamlanmasi va iqtisodiy o'zgarishni hisobga olgan holda uzoq muddatli tuzilgan rejalaridir.

Har bir shaxs iqtisodiy bilim ko'nikmalarini yoshlik vaqtlaridan o'rganishi lozimdir.Chunki har bir yosh kelajakdagi bir jamiyatga o'z hissasini qo'shuvchi shaxs bo'lib yetishadi.Shuning uchun hozzirgi yangi darskliklarimizda va ta'lif jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirishga katta e'tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy madaniyat shaxs ma'naviyatining muhim jihatidir.Chunki, iqtisodiyotga oid bilimlar xo'jalikni tashkil etish va samarali,yuritishni, foyda olishga yo'naltirilgan bilimlarni o'rgatish bilan bir qatorda, kishilarni

*mehnatsevarlikka, tejamkorlikka, mulkka nisbatan ma'suliyat va javobgarlik hissini, o'zi va jamiyat uchun foydali bo'lgan innovatsion g'oyalarni hayotga tadbiq etishni, ish va vazifaga nisbatan ma'suliyat bilan yondashishni, kishilar bilan iqtisodiy – ijtimoiy munosabatga kirishishni, insof, diyonat, homiylik, himoya, ota – onaning farzand oldidagi, farzandning ota – ona oldidagi burchi va vazifalari, tadbirkorlik, savdo va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirish qonun – qoidalari va meyorlarini, iqtisodiy – ijtimoiy hamkorlikda o'zaro sherikchilik prinsiplariga amal qilish kabi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim hisoblanadi.*

Iqtisodiy savodxonlik nafaqat o'rta maktab jamiyatshunoslik kursida iqtisodni o'rganishda,balki mактабда o'qish davrida o'rganiladigan butun fanlar kompleksi asosida shakllantirilishi mumkin. Iqtisodiy ta'limga o'quvchilarga o'rgatishda matematika fanining roli katta. Shu bilan birgalikda iqtisodiy savodxonlikni o'rganishda bir qancha fanlar o'zaro integratsiyalashgan holda o'rgatilsa ancha yaxshi natijaga erishiladi deb o'ylayman.Bu fanlar :matematika ,informatika, geografiya, tarix, adabiyot va jamiyatshunoslikdir.

Matematika darslarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish predmet bo'yicha o'quvchilar tayyorgarlik saviyasini va ularning qiziqishlarini hisobga olishi ,teng darajada ham darslarda ,ham sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirilishi, amaliy yo'nalish kasb etishi va ta'lim oluvchilarga ma'ruza shaklida ma'lumotlarni bayon qilishga imkon berishi va jamoa bo'lib muhokama qilish hamda umumiy tavsiyalar qabul qilishi bilan tugashi lozim.

Xulosa qilganda, matematika kursini o'qitish jarayonida o'quvchilar iqtisodiy savodxonligini yaxshi o'rgatishning ko'pgina usullari mavjuddir.Ana o'sha usullarni ta'lim jarayonida samarali foydalana olishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud va ular o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 7-may kuni PQ -4708 sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" Qarori

2.J.I.Abdullahayev."Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilar moliyaviy savodxonligini shakllantirish usullari" maqolasи

3.J.I.Abdullahayev."Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilar moliyaviy savodxonligini shakllantirish - davr talabi"maqola

4.lex.uz